

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE PLACE OF SYMBOLIC IMAGES IN THE STORIES AND STORIES OF
KHURSHID DOSTMUHAMMAD****Zarina Sadriddinova Jalilova***Independent researcher at Bukhara State University*Email: jalilovazarina9389@gmail.com*Bukhara, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** short story, epic type, psychological analysis, psyche, plot, artistic idea, conflict, prose, skill.**Received:** 19.11.25**Accepted:** 20.11.25**Published:** 21.11.25**Abstract:** The article describes the role of Khurshid Dostmuhammad's short stories in modern Uzbek literature. The unique aspects of the writer's works and the facets of his artistic skills are highlighted.**XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYA VA QISSALARIDA RAMZIY
OBRAZLARINING O'RNI****Zarina Sadriddinova Jalilova***Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*jalilovazarina9389@gmail.com*Buxoro, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** qissa, epik tur, psixologik tahlil, ruhiyat, syujet, badiiy g'oya, konflikt, proza, mahorat.**Annotatsiya:** Maqolada Xurshid Do'stmuhammad qissalarining zamonaviy o'zbek adabiyotida tutgan o'rni yoritilgan. Yozuvchi asarlarining o'ziga xos jihatlari, badiiy mahorat qirralari yoritib berilgan.**МЕСТО СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В РАССКАЗАХ И ПОВЕСТЯХ ХУРШИДА
ДУСТМУХАММАДА****Зарина Садриддиновна Джалилова***Самостоятельный исследователь Бухарского государственного университета*Email: jalilovazarina9389@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рассказ, эпический жанр, психологический анализ, психика, сюжет, художественная идея, конфликт, проза, мастерство.

Аннотация: В статье рассматривается место рассказов Хуршида Дустмухаммада в современной узбекской литературе. Раскрываются особенности творчества писателя и аспекты его художественного мастерства.

Kirish. Qissa janri keyingi davrda milliy adabiyotlarda adabiy jarayon manzarasini belgilab bermoqda. O'zbek adabiyotida esa ushbu janrning gullab -yashnashi o'tgan asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Qissa obyekt bo'lgan qahramon jamiyat bilan faol munosabatga kirishgan payt o'zini nimalar kutayotgani haqida hech qanday tasavvuri bo'lmaydi. U kelajakka qanchalik ishonch bilan qaramasin, o'z taqdirining qanday hal bo'lishini oldindan bilolmaydi. Shunday ekan, shaxsning muhit bilan to'qnashuvi yuz beradi. Qissaga xos yana bir xususiyatlardan biri shundaki, bu janr talabiga ko'ra asar markaziga qo'yilgan muammo yoki masala faqat bir shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu muammo hal bo'lishi bilan asar sujeti ham o'z nihoyasiga yetadi.

Xurshid Do'stmuhammadning hikoya va qissalarida ramziy obrazlar turli ma'naviy, ma'rifiy va falsafiy g'oyalarni ifodalaydi. Ramziy obrazlar voqelikni chuqurroq anglash, personajlarning ichki dunyosini ochish va inson hayotidagi murakkab muammolarni yoritishga xizmat qiladi. Ular asarda o'ziga xos ma'naviy va ruhiy qatlamni yaratib, o'quvchini syujetga kengroq jalb qiladi.

Ma'naviy va falsafiy g'oyalarni ifodalash: Ramziy obrazlar orqali muallif insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy izlanishlari, hayotning ma'nosi kabi mavzularda fikr yuritadi. Masalan, "Sutli daryo" qissasidagi "oqqush" va "qora tog'" kabi obrazlar ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim kabi ziddiyatlarni ramziy tarzda ko'rsatib beradi.

Personajlarning ichki dunyosini ochish: Ramziy obrazlar personajlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari va psixologik holatini aks ettiradi. Ular qahramonning turli vaziyatlarda qanday fikr yuritishini, uning ichki kurashlarini va qarashlarining shakllanishini ochib beradi.

Voqelikning chuqurroq anglanishiga yordam berish: Ramziy obrazlar voqelikni shunchaki tasvirlashdan tashqari, uning chuqurroq ma'nosini ko'rsatadi. Ularning yordamida muallif o'quvchini asar qahramonlarining hayotini va ular duch keladigan muammolarni yanada chuqurroq tushunishga undaydi.

Asar mavzusini boyitish: Ramziy obrazlar asar mavzusiga qo'shimcha ma'naviy va ruhiy qatlamni qo'shadi, uni yanada boyitadi va chuqurlashtiradi. Bu, o'quvchining syujetga faolroq jalb qilinishiga va asardan ko'proq ma'naviy ozuqa olishiga imkon yaratadi.

Inson hayotidagi murakkab muammolarni yoritish: Ramziy obrazlar inson hayotidagi turli murakkab va ziddiyatli muammolarni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali muallif insonning

ijtimoiy, oilaviy, ma'naviy va ma'rifiy hayotidagi muammolarni, ularning yechimlari va oqibatlarini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotning usullari. Xurshid Do'stmuhammadning hikoya va qissalari qiyosiy usullar orqali tadqiq qilingan. Uning hikoyalaridagi realizmning alomatlari mavjud ekanligi ko'rsatib o'tildi. Buni Muallifning "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyasida ham uchratish mumkin. Mumtoz qissalarda an'anaviy qahramonlar asosan romantik ideal nuqtayi nazardan tasvirlangan. Zamonaviy qissalarning qahramonlari esa tevarak-atrofimizdagi real hayotdan olingan oddiy odamlardir. XX asrda yaratilgan qissalarda hayotga yaqinlik, ijtimoiypsixologik tasvir prinsplariga murojaat etish paydo bo'la boshladi" deya yozadi. [1;14] Haqiqatan ham so'nggi paytlarda yaratilayotgan qissalarda oddiy odamlarning hayotini tasvirlashga e'tibor qaratilayotganini ko'ramiz. Ana shunday qissanavislarimizdan biri Xurshid Do'stmuhammadir.

Adib bu janrga mehri tushgani, unga ishtiyoqi balandligini quyidagicha ta'kidlaydi: "Badiiy adabiyotda janrning yaxshi-yomoni yo'q. Roman salmoqdorligi bilan hikoya ixchamligi bilan o'ziga xos. Qissa esa romanga, hikoyaga nisbatan erkinroq, erkaroqligi bilan jozibali, ko'ngilga yaqin. Bir taqdir, biror voqea-hodisa, birorta g'oya yoki faraz haqida so'zlashga kirishdingizmi, qissa yaratilyapti deyavering! [3;17].

Natijalar. Adib barcha qissalarida qahramon qiyofasini, uning xarakteri qirralarini keng tasvirlashga alohida e'tibor qaratadi. U turmush voqealarini personajlarning turli vaziyatdagi holatlari, kechinmalari bilan bog'lab tasvirlaydi. "Nigoh" dagi Bek ham, "Panoh"dagi Ahmadali ham, "So'roq"dagi Bozorboy ham, "Oromkursi" dagi Ko'klam Tongotarov ham ko'pchilikning biri bo'lib oramizda yashamoqda. Muallifning boshqa qissalaridagi adabiy qahramonlarning hayoti va kechinmalari ham har birimizga tanish holatlarni eslatadi.

Muallif yaratgan qahramonlar uzoqda emas bizning oramizda ekanligini anglaymiz. Ularning boshidan o'tayotgan hodisalar, o'y-fikrlar har birimizning ichimizda bo'lgan va bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar ekanligini his qilamiz. Adib asarlaridagi bu kabi tasvir uslubi o'zbek adabiyotida hayot hodisalari va inson obrazini gavdalantirish, insonning ichki olamiga kirib borishda dadil izlanishlar kechayotganidan darak beradi. Xurshid Do'stmuhammadning "Nigoh" qissasi ham psixologik tasvirlarga to'la ekanligi bilan diqqatimizni tortadi. Qissaning bosh qahramoni Bek ismli tramvay haydovchisi. Asar voqealari tramvayning "Volga"ga urilishi bilan boshlanadi. Avvaliga Bek bu voqeaga zarracha aloqasiz odamdek pinagini buzmaydi. "Qoziqdan otilib oyog'I ostiga tushgan haltasiga, undan yarmi ko'rinib qolgan qora muqovali qalin kitobga beparvo qaradi... Vagon ichidagi, tashqaridagi g'ala-g'ovur, shovqin quloqqa elas-elas chalinayotganday bazo'r eshitilardi. Kabina eshigi oynasiga tumshug'i bilan kelib urilgan o'rta yoshlardagi semiz kishi gavdasini tutolmay yon tomonga ag'darildi. Bek sekinlatib

ko'rsatilayotgan teletasvirni tomosha qilayotganday uni bamaylihotir, hatto qiziqib kuzatdi" [3;26].

Muhokama. Asardan keltirilgan parchadan ham bilinib turibdiki Bek loqayd, beparvo kishi. Volga ichidagi ayolning kasalxonada yotganini bila turib undan hol –ahvol so'rashi kerakligini his qilmasligi jamiyatdagi insonlarga nisbatdan ham beparvoligini ko'rsatadi. Lekin shunday bo'lsa-da u oilasiga farzandlariga nisbatan mehribon. Yozuvchi ushbu qahramonni salbiy jihatlarini ham ijobiy tomonlarini ham mahorat bilan tasvirlaydi. Qahramon xarakteridagi bu jihatlar har birimizning ichki olamimiz mukammal emasligini, hammaning ham yaxshi va yomon tomonlari borligini yodimizga soladi. Muhimi shu salbiy jihatlarimizni vaqtida anglab, tuzata olishimizda. Qissa qahramoni Bek ham "o'suvchi" personaj hisoblanadi. Ya'ni asar boshidagi beparvo, loqayd Bek qissa so'nggida o'z-o'zini taftish qiluvchi obrazga aylanganligining guvohi bo'lamiz. Zero, "Psixologik tahlil va obrazning o'z-o'zini taftish qilishi singari usullar ham ruhiy tasvir puxtaligiga xizmat qiladi" [2;206].

Qissada muallif o'z fikrlarini Amaki obrazi orqali ifodalaydi: "Qayoqqa qochasan o'g'lim?... Ta'qib etuvchi nigohlarni unutish mumkin, ammo ulardan qochib qutulishning chorasi yo'q. Uqdingmi?. Hech kim... Biron lahza bo'lsin, o'sha nigohlarni unutdingmi - bas, noqobil ishlar kelib chiqaveradi... har kim umr bo'yi qandaydir nigohlar kuzatuvida yuradi, ularni unutgan imonidan ayriladi, qadr-qimmatini oyoq osti qilgan odamgina ulardan qochadi, qochmoqchi bo'ladi..." [3;93]. Bu fikrlar har birimizni o'ylashga majbur qiladi.

"Nigoh" – ko'p jihatlar bilan yangi ruhdagi qissa... Dil jarayonlarini tasvir markaziga olib chiqish, ulardagi o'zgarishlarning qatlamlariga yanada chuqurroq kirishga intilish, majoz va ramzlardan foydalanish va bu vositalar yordamida inson qalbidagi kechinmalarni izchil o'rganish asar badiiyligini o'ziga xos belgilaridir. X.Do'stmuhammad asarlarida, xususan qissalarida asosiy g'oyalar qahramonlar xarakteri orqali insonning ko'ngliga kirib borishi bilan ta'sirlidir.

Ijodkor ham milliy adabiy an'analarni, ham jahon adabiyoti tajribalarini puxta o'zlashtirib adabiyotimizga yangicha uslublar olib kirayotgan adiblarimizdan hisoblanadi. U o'z so'ziga, o'z uslubiga ega bo'lib, yaratgan qahramonlari orqali insonning ichki olamini ochib bera oladi. Xurshid Do'stmuhammadning "Xijronim mingdir mening" qissasi oshiq va mashuqaning ko'ngil izhorlari bitilgan maktublardan iborat. Adabiyotimizda maktublardan iborat asarlar talaygina. Lekin "Xijronim mingdir mening" qissasi konfliktlarning yo'qligi bilan ulardan farq qiladi. Bu haqida Umarali Normatov shunday deydi: "Biz ko'p yillar "konfliktsizlik nazariyasi"ga qarshi jang qilib keldik, har bir asarda albatta jiddiy "konflikt", "jang uchun asos" bo'lishi zarur degan da'voda yurdik. Endi o'ylab qarasak, bu shart emas ekan; jahon adabiyotida shunday noyob badiiy obidalar borki, ular tayinli hayotiy ziddiyatlardan, o'tkir konfliktintrialardan holi; shunga qaramay ularda inson tabiati, qalbi qoyilmaqom qilib ochilgan" [4;199].

Haqiqatan ham ushbu qissada konfliktni uchratmaymiz. Yigit va qiz bir –birlariga ezgu tuyg’ularni izhor qiladilar. Qissani o’qigan kishi ikki oshiq orasidagi baxtiyor damlarni kuzatar ekan ko’nglining bir chekkasida ajib xavotir sezadi. Go’yo ular visolga emas, hijronga mahkumdek, bordiyu ular visolga erishishsa barchasi barbod bo’ladigandek tuyuladi.

Ushbu qissa va uning mantiqiy davomi hisoblangan “Men- Sensiz, Sen-mensiz” qissasini nafaqat yozuvchi ijodi, balki hozirgi o’zbek lirik prozasining ham go’zal namunalari deyishimiz mumkin. Yozuchining sevgi falsafasiga doir ushbu qissalari o’zbek badiiy nasrida ruhiy hayotga e’tabor kuchayganini ko’rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, iste’dodli yozuvchi Xurshid Do’stmuhammadning qissalari yangicha uslubda yaratilganligi bilan istiqlol davri o’zbek nasri taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunos Marhabo Qo’chqorova ta’kidlaganidek: “ Xurshid Do’stmuhammad nasri o’quvchini mudom o’ylantirib , mulohaza yuritishga , kitobxonni faol fikrlashga o’rgatuvchi intellektual jihatdan baland ijod”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qo’shjonov M. Normamatov Y. Mahorat sirlari. – T.: G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashri. 1968, 13-14-betlar.
2. O’ljaboyev U. Hikoyachilikda davr nafasi.- T.: Turon zamin ziyo nashriyoti.68-bet.
3. Mirvaliyev S. Shokirova R. O’zbek adiblari. – T.: G’afur G’ulom nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 300-bet
- 4.Xurshid Do’stmuhammad. Beozor qushning qarg’ishi – T.: Sharq.Yu. 2006. 3-bet.
5. Normatov U. Badiiyat ko’zgusi – millat taqdiri. “Sharq yulduzi” 2011. 3-son
- G.Sattorova. “90-yillar o’zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi”. Toshkent. 2002.
6. X.Do’stmuhammad. “Beozor qushning qarg’ishi”. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2006
7. Karimov B. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi. “Muharrir” nashriyoti. 2011.
8. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. «Fan», 2006.